AKNE KASALLIGINING SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIRINING NAZARIY TAHLILI

Sodiqova Kamola Akromovna
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
"Psixologiya (Ijtimoiy psixologiya)"
mutaxassisligi
MPSY-11U guruh magistranti

Annotatsiya: *Ushbu tezisda akne kasalligining shaxslararo munosabatlarga ta'siri nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — aknening shaxsning psixologik holati, o'z-o'zini baholashi va ijtimoiy muloqot jarayonlariga ta'sirini ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida ochib berishdan iborat. Tezisda tashqi ko'rinish psixologiyasi, kognitiv-behavioral yondashuv hamda shaxslararo munosabatlar nazariyalari asosiy nazariy yo'nalishlar sifatida ko'rib chiqiladi. Nazariy tahlil natijalariga ko'ra, akne kasalligi shaxsda ijtimoiy ishonchsizlik, muloqotdan chekinish va ijtimoiy moslashuvning pasayishiga olib kelishi mumkinligi asoslanadi. Tadqiqot xulosalari akne muammosiga kompleks — tibbiy va psixologik yondashuv zarurligini ko'rsatadi.*

***Kalit so`zlar :*** *Akne, tashqi ko`rinish, dermatologik holatlar, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy stigma, o'zini qabul qilish, tana imiji, o'zini baholash, emotsional holat, psixologik moslashuv, o'ziga ishonch, ijtimoiy solishtirish, depressiya, stress, ijtimoiy qabul qilish, identitet, yoshlar psixologiyasi, tashqi ko'rinish, psixoterapiya, shaxsiy rivojlanish, psixologik farovonlik.*

Bugungi kunda zamonaviy jamiyatda tashqi ko'rinish shaxsning ijtimoiy qabul qilinishi va shaxslararo munosabatlar tizimida muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, hozirgi davrda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi fonida estetik

ko‘rinishga bo‘lgan talabning ortishi kuzatilmoqda. Shu sababli, tashqi ko‘rinishda yuzaga keladigan muammolar, jumladan akne kasalligi, shaxsning psixologik holati va ijtimoiy munosabatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy sharoitda akne kasalligi nafaqat dermatologik, balki ijtimoiy-psixologik muammo sifatida ham tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Akne ko‘pincha o‘smirlik va yoshlik davrida uchrab, shaxsning o‘z-o‘zini baholashi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi hamda tengdoshlar bilan muloqot jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat ijtimoiy moslashuv jarayonining murakkablashuvi, shaxslararo munosabatlarda chekinish va kommunikativ faollikning pasayishi bilan namoyon bo‘lishi mumkin.

Hozirgi davrda psixologiya va tibbiyot fanlarining integratsiyasi kuchayib borayotgan bir sharoitda, akne kasalligining shaxslararo munosabatlarga ta’sirini nazariy jihatdan o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu muammoni chuqur tahlil qilish dermatologik davolash jarayonini psixologik qo‘llab-quvvatlash bilan uyg‘unlashtirish, shuningdek, shaxslarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bois, bugungi kunda akne kasalligining shaxslararo munosabatlarga ta’sirini o‘rganish zamonaviy sharoitda dolzarb masala bo‘lib, mazkur tadqiqot natijalari psixologik maslahat, profilaktika hamda ta’lim jarayonlarida amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi bilan asoslanadi. Bugungi kunda zamonaviy psixologiya va tibbiyot fanlarida akne kasalligi faqat dermatologik muammo sifatida emas, balki shaxsning psixologik holati va shaxslararo munosabatlariga ta’sir etuvchi muhim ijtimoiy-psixologik omil sifatida talqin etilmoqda. Shu bois, mazkur masalani nazariy jihatdan tahlil qilish turli ilmiy yondashuvlar va nazariy maktablar doirasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Akne va tashqi ko‘rinish psixologiyasi. Chet el olimlari tomonidan ishlab chiqilgan tashqi ko‘rinish psixologiyasi nazariyalarida shaxsning o‘z tanasi va tashqi qiyofasiga munosabati uning o‘z-o‘zini baholashi va ijtimoiy xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlanadi. Jumladan, G. Cash va T.

Pruzinsky asarlarida tashqi ko‘rinishdagi nuqsonlar shaxsda tanaga nisbatan norozilikni kuchaytirib, ijtimoiy ishonchsizlikni yuzaga keltirishi mumkinligi ilmiy asoslangan. Akne kabi yuzda joylashgan estetik muammolar shaxslararo muloqot jarayonida o‘zini erkin tutmaslikka olib kelishi nazariy jihatdan izohlanadi. O‘z-o‘zini baholash va shaxslararo munosabatlar.[2,3]

MDH olimlaridan L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyev va S.L. Rubinshteynlarning faoliyat va shaxs rivoji haqidagi nazariyalarida ijtimoiy muhit va shaxsning o‘zini anglash jarayoni muhim o‘rin egallaydi. Ushbu yondashuvlarga ko‘ra, tashqi ko‘rinishga doir salbiy tajribalar shaxsning “Men-konsepsiyasi” shakllanishiga ta’sir ko‘rsatib, shaxslararo munosabatlarda passivlik va chekinish holatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Akne mavjudligi shaxsning ijtimoiy rollarni bajarishiga psixologik to‘siq bo‘lishi ehtimoli nazariy jihatdan asoslanadi.[14,17]

Kognitiv-behavioral yondashuv. Chet el psixologiyasida keng tarqalgan kognitiv-behavioral yondashuv (A. Beck, A. Ellis) shaxsning emotsional holati tashqi vaziyatdan ko‘ra, ushbu vaziyatni qanday idrok etishiga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Ushbu nazariyaga muvofiq, akne bilan bog‘liq salbiy avtomatik fikrlar (“men jozibali emasman”, “meni rad etishadi”) shaxslararo munosabatlarda xavotir va ijtimoiy chekinishga olib keladi. Bu yondashuv akne va ijtimoiy munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.[1,4]

Ijtimoiy taqqoslash va stigma nazariyalari. L. Festingerning ijtimoiy taqqoslash nazariyasiga ko‘ra, shaxs o‘zini boshqalar bilan solishtirish orqali baholaydi. [5] Zamonaviy sharoitda tashqi ko‘rinish idealining kuchayishi aknega ega shaxslarning o‘zini boshqalardan past baholashiga olib kelishi mumkin. MDH va chet el olimlari tomonidan ishlab chiqilgan stigma nazariyalarida esa tashqi ko‘rinishdagi farqlilik jamiyat tomonidan salbiy yorliq (stigma) sifatida qabul qilinishi, bu holat shaxslararo munosabatlarda ijtimoiy masofaning oshishiga sabab bo‘lishi qayd etiladi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, akne kasalligi shaxslararo munosabatlarga ta’sir etuvchi ko‘p qirrali psixologik hodisa hisoblanadi. Turli nazariy maktablar — faoliyat yondashuvi, kognitiv-behavioral nazariya, tashqi ko‘rinish psixologiyasi va stigma nazariyalari — aknening shaxsning o‘z-o‘zini baholashi, ijtimoiy faolligi va muloqot sifatiga ta’sirini turli jihatlardan ilmiy asoslab beradi. Ushbu nazariy qarashlar akne muammosini kompleks tarzda tushunish va kelgusida amaliy tadqiqotlar olib borish uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Nazariy yondashuvlar tahlili. Bugungi kunda zamonaviy psixologik va ijtimoiy tadqiqotlarda akne kasalligining shaxslararo munosabatlarga ta’siri turli nazariy yondashuvlar doirasida izohlanadi. Ushbu yondashuvlar akneni tashqi ko‘rinish omili sifatida shaxsning ichki psixologik holati va ijtimoiy xulq-atvori bilan bog‘liq holda talqin qiladi. MDH psixologiya maktabiga mansub L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyev va S.L. Rubinshteyn nazariy qarashlariga ko‘ra, shaxs rivoji ijtimoiy faoliyat va muloqot jarayonida shakllanadi. Ushbu yondashuv nuqtayi nazaridan akne shaxsning ijtimoiy faoliyatida psixologik to‘siq sifatida namoyon bo‘lib, muloqotga kirishish jarayonini murakkablashtirishi mumkin. Tashqi ko‘rinishdagi noqulaylik shaxsning faol ishtirokini cheklab, shaxslararo munosabatlarda passivlikni kuchaytirishi ehtimoli nazariy jihatdan asoslanadi.[14,17]

Chet el psixologiyasida keng qo‘llaniladigan kognitiv-behavioral yondashuv (A. Beck, A. Ellis) shaxsning hissiy holati uning vaziyatni idrok etish va talqin qilishiga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv doirasida akne bilan bog‘liq salbiy kognitiv sxemalar shaxslararo munosabatlarda xavotir, ishonchsizlik va ijtimoiy chekinishga olib kelishi mumkinligi nazariy jihatdan tushuntiriladi. Ya’ni, akne emas, balki unga nisbatan shakllangan subyektiv munosabat muloqot sifatiga ta’sir etadi. [1,4] G‘arb psixologiyasida rivojlangan tashqi ko‘rinish psixologiyasi (G. Cash, T. Pruzinsky) tashqi qiyofa shaxsning o‘zini baholashi va ijtimoiy qabul

qilinishida muhim rol o‘ynashini asoslaydi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, yuzda joylashgan akne kabi estetik muammolar shaxsning ijtimoiy o‘zaro ta’sir jarayonida o‘zini noqulay his qilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Natijada shaxslararo munosabatlarda ochiqlik va emotsional yaqinlik darajasi pasayadi. [2] L. Festinger tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy taqqoslash nazariyasiga muvofiq, shaxs o‘zini boshqalar bilan solishtirish orqali baholaydi. Zamonaviy sharoitda tashqi ko‘rinish idealining kuchayishi aknega ega shaxslarning o‘zini salbiy baholashiga olib kelishi mumkin. Ushbu yondashuv akne bilan bog‘liq psixologik noqulayliklarning ijtimoiy manbalarini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. [5]

Stigma va yorliqlash yondashuvi. Ijtimoiy psixologiyada stigma nazariyasi (E. Goffman) tashqi ko‘rinishdagi farqlilik jamiyat tomonidan salbiy yorliq sifatida qabul qilinishini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, akne mavjudligi shaxslararo munosabatlarda ijtimoiy masofaning oshishiga, shaxsning o‘zini cheklashiga va muloqotdan qochishiga sabab bo‘lishi mumkin. Stigmatizatsiya jarayoni shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasiga ta’sir etadi. Turli nazariy yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, akne kasalligining shaxslararo munosabatlarga ta’siri ko‘p omilli va murakkab jarayondir. Har bir yondashuv ushbu muammoning muayyan jihatini yoritadi va ularning uyg‘unligi akne bilan bog‘liq psixologik va ijtimoiy muammolarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Mazkur nazariy tahlil keyingi ilmiy izlanishlar uchun konseptual asos bo‘lib xizmat qiladi. [6]

Mualliflar qarashlarini taqqoslash. Akne kasalligining shaxslararo munosabatlarga ta’siri masalasi turli ilmiy maktablar vakillari tomonidan turlicha talqin qilingan. MDH va chet el olimlarining nazariy qarashlarini taqqoslash ushbu muammoning psixologik mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. MDH psixologiya maktabi vakillari — L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyev va S.L. Rubinshteyn — shaxs rivojini ijtimoiy faoliyat va muloqot jarayoni bilan uzviy bog‘liq holda izohlaydilar. Ularning qarashlariga ko‘ra,

tashqi muhit omillari, jumladan tashqi ko‘rinish bilan bog‘liq holatlar, shaxsning “Men” tizimi va ijtimoiy rollarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvda akne shaxslararo munosabatlarga bilvosita ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omil sifatida ko‘riladi.[14,17]

Chet el olimlari G. Cash va T. Pruzinsky tashqi ko‘rinish psixologiyasi doirasida akneni shaxsning tanaga nisbatan munosabatini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, yuzdagi estetik nuqsonlar o‘z-o‘zini baholashning pasayishiga olib kelib, bu holat shaxslararo munosabatlarda ishonchsizlik va emotsional chekinish bilan namoyon bo‘ladi.[2] Bu yondashuv MDH olimlari qarashlariga nisbatan individual psixologik jihatlarga ko‘proq urg‘u beradi.

Kognitiv-behavioral maktab vakillari A. Beck va A. Ellis esa akne bilan bog‘liq muammolarni shaxsning kognitiv baholash tizimi orqali tushuntiradilar. Ularning qarashlariga ko‘ra, muammo aknening o‘zida emas, balki shaxsning unga bergan subyektiv talqinida namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuv chet el olimlarining psixologik moslashuv mexanizmlarini tushuntirishda faol qo‘llaniladi va shaxsning ichki fikrlash jarayonlariga asoslanadi. [1,4] L. Festingerning ijtimoiy taqqoslash nazariyasi akne bilan bog‘liq psixologik noqulayliklarning ijtimoiy manbalarini yoritadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, shaxs o‘z tashqi ko‘rinishini atrofdagilar bilan taqqoslash orqali baholaydi. Zamonaviy sharoitda tashqi ko‘rinish idealining kuchayishi aknega ega shaxslarning o‘zini salbiy baholashiga olib kelishi mumkin.[5] Bu yondashuv ijtimoiy kontekstga e’tibor qaratishi bilan boshqa nazariyalardan farq qiladi. E. Goffman tomonidan ishlab chiqilgan stigma nazariyasida esa akne tashqi ko‘rinishdagi ijtimoiy farqlilik sifatida talqin qilinadi.[6] Goffman qarashlarida jamiyat tomonidan berilgan salbiy yorliq shaxslararo munosabatlarda ijtimoiy masofaning oshishiga sabab bo‘ladi. Ushbu yondashuv MDH faoliyat nazariyasiga nisbatan ijtimoiy baholash va ijtimoiy reaktsiyalarga ko‘proq urg‘u berishi bilan ajralib turadi. Umuman olganda,

MDH olimlari akne muammosini asosan ijtimoiy muhit va faoliyat bilan bog‘liq holda izohlasalar, chet el olimlari individual kognitiv jarayonlar, tashqi ko‘rinish idroki va ijtimoiy baholash mexanizmlariga e’tibor qaratadilar. Ushbu qarashlarning taqqoslanishi akne kasalligining shaxslararo munosabatlarga ta’sirini kompleks va tizimli tarzda tushuntirish imkonini beradi hamda mazkur masalani o‘rganishda turli nazariy yondashuvlarning o‘zaro to‘ldiruvchi xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. O‘tkazilgan nazariy tahlil natijalariga ko‘ra, akne kasalligi zamonaviy sharoitda faqat dermatologik muammo sifatida emas, balki shaxsning psixologik holati va shaxslararo munosabatlariga ta’sir etuvchi muhim ijtimoiy-psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Turli ilmiy manbalarda akne tashqi ko‘rinish bilan bog‘liq bo‘lib, shaxsning ijtimoiy qabul qilinishi jarayonida muhim rol o‘ynashi ta’kidlanadi. Nazariy yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aknening shaxslararo munosabatlarga ta’siri ko‘p jihatdan shaxsning o‘z-o‘zini baholashi va “Men-konsepsiyasi” bilan bog‘liq. Akne bilan bog‘liq salbiy kognitiv baholashlar ijtimoiy ishonchsizlik, muloqotdan chekinish va emotsional noqulayliklarni yuzaga keltirishi mumkin. MDH va chet el olimlarining qarashlarini taqqoslash natijasida, ushbu muammoni izohlashda turli nazariy maktablar bir-birini to‘ldirishi aniqlanadi. Faoliyat yondashuvi ijtimoiy muhit va muloqotning ahamiyatini ochib bersa, kognitiv-behavioral va tashqi ko‘rinish psixologiyasi yondashuvlari individual psixologik mexanizmlarni yoritadi. Umuman olganda, nazariy tahlil akne kasalligining shaxslararo munosabatlarga ta’sirini kompleks yondashuv asosida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu xulosalar akne muammosini hal etishda tibbiy choralar bilan bir qatorda psixologik va ijtimoiy omillarni ham hisobga olish muhimligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shuningdek, tahlil qilingan ilmiy manbalar akne bilan bog‘liq psixologik muammolar shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan qiyinchiliklarning sababchisi bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu holat shaxsning ijtimoiy moslashuv darajasiga ta’sir etib, tengdoshlar, oila a’zolari

hamda keng ijtimoiy muhit bilan bo‘lgan munosabatlarning sifatini belgilab beradi. Shu nuqtayi nazardan, nazariy qarashlar akne kasalligi mavjud shaxslar bilan ishlashda integrativ yondashuv zarurligini asoslaydi. Ya’ni, dermatologik muolajalar bilan bir qatorda, shaxsning psixologik holatini mustahkamlash, o‘z-o‘zini baholashni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixologik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur nazariy umumlashtirishlar akne kasalligining shaxslararo munosabatlarga ta’sirini yanada chuqurroq o‘rganish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi hamda kelgusida olib boriladigan empirik tadqiqotlar uchun ilmiy yo‘nalishlarni belgilash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

XORIJIY MANBALAR

1. Beck A. T. *Cognitive Therapy and the Emotional Disorders*. New York, 1976, 356 p.
2. Cash T. F. *Body Image: A Handbook of Science, Practice, and Prevention*. New York, 2011, 512 p.
3. Cash T. F., Pruzinsky T. *Body Image: Development, Deviance, and Change*. New York, 1990, 365 p.
4. Ellis A. *Reason and Emotion in Psychotherapy*. New York, 1994, 384 p.
5. Festinger L. *A Theory of Social Comparison Processes*. Stanford, 1954, 118 p.
6. Goffman E. *Stigma: Notes on the Management of Spoiled Identity*. New York, 1963, 147 p.
7. Harter S. *The Construction of the Self: Developmental and Sociocultural Foundations*. New York, 2012, 432 p.
8. Mead G. H. *Mind, Self, and Society*. Chicago, 1934, 401 p.
9. Rosenberg M. *Society and the Adolescent Self-Image*. Princeton, 1965, 326 p.

10. Thompson J. K. *Body Image, Eating Disorders, and Obesity*. Washington, 1996, 278 p.

Mahalliy (MDH) manbalar

11. Andreeva G. M. *Ijtimoiy psixologiya*. Moskva, 2004, 432 b.
12. Bojovich L. I. *Shaxs va uning bolalik davrida shakllanishi*. Moskva, 1968, 464 b.
13. Kon I. S. *Shaxs sotsiologiyasi*. Moskva, 1984, 352 b.
14. Leontyev A. N. *Faoliyat. Ong. Shaxs*. Moskva, 1975, 304 b.
15. Myasishchev V. N. *Shaxs va nevrozlar*. Leningrad, 1960, 426 b.
16. Petrovsky A. V. *Shaxsning ijtimoiy psixologiyasi*. Moskva, 1982, 395 b.
17. Rubinshteyn S. L. *Psixologiya asoslari*. Moskva, 1976, 420 b.
18. Stolin V. V. *Shaxsning o‘z-o‘zini anglash psixologiyasi*. Moskva, 1983, 284 b.
19. Yakobson P. M. *Shaxs psixologiyasi*. Moskva, 1981, 312 b.
20. Zeer E. F. *Shaxs psixologiyasi*. Moskva, 2003, 256 b.